

MODELYER DIZAYNERLAR CHIZADIGAN INSON QOMATIDA LIBOSLARGA RANGNING BOSQICHMA --BOSQICH BERILISHI USULLARI

Amonova Zarifa Usmonovna

Vosiyeva Aziza To'xtaqulovna

*Navoiy davlat pedagogika instituti "San'atshunoslik" fakulteti
"Tasviriy san'at va muxandislik grafikasi" kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada dizayner-modelyerlar chizgan qomatli ayollarning liboslariga rangning bosqichma - bosqich berilishi usullari, moda haqida tushuncha, rang berishda, mato tanlashda qanday qoidalarga amal qilinishi haqidagi ma'lumotlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: dizayner-modelyer, rang, san'at, asar, dizayn, libos, moda, kolleksiya, uslub, tasvirlash.

Аннотация. В этой статье дизайнеры-модельеры нарисовали

Объясняются пошаговые способы добавления цвета в одежду высоких женщин, понимание моды, информация о правилах, которых следует придерживаться при выборе цветов и тканей.

Ключевые слова: Ключевые слова: рисунки модельеров, цвет, искусство, работа, дизайн, платье, мода, коллекция, стиль, описание.

Abstract. In this article, designers-modelers have drawn step-by-step methods of adding color to the clothes of tall women, understanding of fashion, information about the rules to be followed when choosing colors and fabrics are explained.

Keywords: Key words: drawn by designer-modellers, color, art, work, design, dress, fashion, collection, style, description.

Kirish. Tasviriy san'atda, dizayn san'atida — rangtasvir asosiy ifoda va tasvir vositasidir. Rang orqali rassom va dizayner mavjud borliqni o'ziga xos xususiyatlari bilan haqqoniy aks ettiradi. Jahon san'ati taraqqiyotida borliq rangini aks ettirishning turli uslub va tizimlari shakllangan, biroq hammasining asosida ranglarni bir-biri bilan aralashtirib, yangi rang hosil qilish uslubi yotadi. 7 xil kamalak (spektr) rangini bir-biriga aralashtirish orqali 280 dan ortiq rang tuslanishini hosil qilish mumkin. Rang inson ruhiyatiga kuchli ta'sir etuvchi vosita bo'lib, u insonda quvonch va mayuslik, tetiklik yoki g'amginlik, xotirjamlik yoki bezovtalik tuyg'ularini uygotishi mumkin. Rassomlar, dizaynerlar uchun rangning ana shu kuchi muhim omil bo'lib, ular asarning g'oyaviy plastik yechimida muhim rol o'ynaydi.

Tabiatdagi bor ranglar axromatik va xromatik ranglarga bo'linadi. Axromatik ranglarga oqdan to'q qoragacha bo'lgan bo'yoqlar, qolganlari xromatik ranglarga kiradi. Xromatik ranglar o'z navbatida issiq (qizil, sariq, zarg'aldoq) va sovuq (ko'k, moviy, binafsha), shuningdek, har ikkisiga kiruvchi (binafsha, yashil) ranglarga ajratiladi. Rangtasvirda issiq va sovuq ranglarning o'zaro uyg'unligi

asarning rang tizimi — koloritni tashkil qiladi, shuningdek, asar kompozitsiyasini tashkil etuvchi unsur va vosita hisoblanadi. Iliq rang yaqinlik, sovuq rang uzoqlik tuygʻusini berishi asarda masofani koʻrsatishda qoʻl keladi.

Rasmning muhim tasviriy va taʼsir vositasi — rang (kolorit). Rang orqali borliq yoki xayoliy dunyoni koʻrinarli shakllarda tasvirlaydi, makonning cheksizligini, undagi narsalarning rang-barangligini, moddiylikni hajm va fakturasini koʻrsatishi, harakat, inson ruhiyatidagi oʻzgarishlar, murakkab hissiy kechinmalar, oʻy-xayollarni aks ettirishi mumkin. Rangning tasviriy ifoda vositasi va ishlash uslubi ishlatiladigan rang, qurollar xususiyati, rang eritgichlari, asosiga bogʻliq. Asar dastlab ijodkor tasavvuri va ongida paydo boʻlgan gʻoya qoralamasi tarzida qalam biror yuza (koʻpincha qogʻoz va karton)da ishlab olinadi. Soʻng shunga mos asos tanlanib, unga bajariladigan ishning mohiyatiga koʻra ishlov beriladi. Shundan soʻng tasvir oʻrni belgilab rasmi ishlanadi.

Rang berishda esa-asta suyultirilgan rang bilan boshlab koʻp qatlamli yoki kerak rangni bir qoʻyishda bir qatlamli bajarish mumkin. Rangda kompozitsiya asarlari ishlanishini shartli ikki — yassi va hajmli — fazoviy uslubga ajratish mumkin: birinchi uslubda tasvir nur-soyasiz yaxlit yassi shakllarda ishlanadi, hajmli-fazoviy usulda esa tasvir hajmli nursoya yordamida muhit bilan bogʻliq holda tasvirlanadi. Bunday asarlar rangga boy boʻlib, unda ranglarning barcha tuslanishlarini his etish, tushuvchi nurning qaytgan rangini ham, qaytgan nurlarning tuslanishi va boshqa ranglar bilan boyishini koʻrish mumkin. Rangli asarlarida bu ikki uslub orasida qatʼiy chegara yoʻq, biri ikkinchisini toʻldiradi.

Libos dizayni mamlakatimiz uchun yangi soha. Asrlar mobaynida shakllangan anʼanalar yosh dizaynerlarga yangidan yangi zamonaviy libos modellari yaratishlarida, ularning yangicha – milliylikka xos libos gʻoyalariga tuganmas motivlar maʼnosida ijodiy ilhom baxsh etadi.

Modelyer-rassom oʻz ishida uning tasavvuri va fantaziyasini ozuqa berib boyitadigan turli ijodiy manbaalarga murojaat etadi. Xalqning tarixiy oʻtmishi va hozirgi jamiyat hayoti, atrof-tabiatning xilma-xilligi, tarixiy kostyumlar va xalq kostyumlarining boyligi, badiiy adabiyot, musiqa, kino, teatr va hokazolar. Rassom oʻylarini yetishtirishga va konkretlashtirishga yordam beradigan ayrim motivlardan foydalanib, ana shu manbaalardan oʻz gʻoyalari va obrazlarini toʻplab boradi. Kiyimning obrazli ifodaliyligiga kompozitsiya sanʼati vositasida, yaʼni kiyimni tashkil etuvchi hajmlar, ranglar, chiziqlar, detallar va bezak elementlarini yagona uzviy bir butun qilib birlashtirish vositasida erishiladi. Biroq modelyerning kiyim va butun kostyum obrazining eng muhim jihati, yaʼni vazifa nuqtai nazaridan qulay, hayotda oʻrinli kostyum yaratishga boʻysundirilgan boʻlibgina qolmay, balki ifodali boʻlishi ham kerakligi talab qilinadi.

Dizayner xalq liboslariga oʻzgacha qiziqish bilan yondashadi. Libosning asosiy qiymati uning funktsionalligi, bichim va shakl ilmidagi, aql – idrokka asoslangan va maqsadga muvofiq ravishda boʻlishi, bu bilan bir paytda dekorativ bezashning turli xil usullari hisobiga tashqi koʻrinishning koʻp variantligini tushuntirish va amaliy qoʻllashni oʻrgatish. Milliy liboslar asosida zamonaviy

kiyimlar kolleksiyasini yaratish. Xalq liboslarini ijodiy qayta ishlash va o'rganish qiymatga, rivojlanishga, zamonaviy libosning yangilanishiga, unda o'ziga xos milliy ranglar uyg'unligini yaralishiga yordam beradi. Saqlanib kelinayotgan xalq san'atini, marosimlarni chuqur o'rganmasdan turib, zamonaviy liboslarning tezlashgan jarayonini ko'rib bo'lmaydi.

Dizayn fanidan amaliy mashg'ulot bo'yicha milliy yoki an'anaviy xalq libosi asosida zamonaviy kiyimlar kolleksiyasini yaratish uchun, loyihasini bajarishda fanning vazifasi, maqsadi va mazmuni berilgan zamonaviy kiyim yaratish uchun tarixni bilish shart. Shunga asoslanib, amaliy mashg'ulot loyihasida xalq kostyumlarini tarixiy rivojlanishini o'rganish qo'llanadi. O'rta Osiyo va Old Osiyo kostyumlari chuqur o'rganiladi. Ularning ijtimoiy regional, yoshi, jinsi, belgilari bo'yicha X asrdan boshlab XX asrgacha bo'lgan davrini o'rganilib chiqiladi.

Dizayner-modelerlar chizgan asarlarida birinchi figura chiziladi va undan so'ng libos chiziladi, rang berishda figurada libosni bosqichma-bosqich bo'yab boriladi. Har xil bo'yoqlardan akvarel, guash, moy bo'yoq, flamaster, rangli ruchka, akrel va boshqalar. Asosan akvarelda chizilganda, rang tanlaymiz va och qilib rangni berib olamiz. Oq joylar (blek) qoldirib ketiladi, chunki akvarelda oq rang ishlatilmaydi. Birinchi bosqich buyab bo'lingandan so'ng, qog'ozni quritib ikkinchi rangni berib boshlanadi. Ikkinchi rangda soya joylar topiladi va birinchi bosqichni yo'qotib yuborilmagan holda ranglar quyiladi. Rang ko'rish va rangning urulishi degan tushuncha mavjud bo'lib, berilgan rangga yaqin ranglar yoki kontrast ranglar beriladi. Uchunchi bosqichda to'q soyalar asosiy mato buklamalar soyalari chiqariladi. To'rtinchi bosqichda mato bezaklari, gullari, kashtalar va hokazo bezaklar bilan yakunlanadi.

1-2-3-4- ramlarda bosqichma – bosqich chizish tartibi ko'rsatilgan.



Rassom - modelyerning oldidagi asosiy maqsadi zamonaviy moda yo'nalishiga mos kostyum va odamning tashqi ko'rinishini (imidj) yaratishdir. Rassom - modelyer o'z xayolini epchillik bilan qog'ozga tushirishi uning yuqori sifatli mutaxassis ekanligini belgilab beradi. Tasvirlash ijodning eng sodda va eng qulay yo'li. Eskiz chizishda rassom-modelyer juda ham ko'p materiallardan foydalanishi mumkin. Shuningdek eskiz yaratishda tasvirlashning turli texnikalaridan foydalanish ham dizaynerning ijodiy fikrlashini yanada keng namoyon qiladi.

Moda (fransuz tilida me'yor, usul ma'nosida) – bu inson faoliyatining ixtiyoriy sohasida; san'at, kiyinish, xulq-atvor va boshqa sohalarida ma'lum shakllarning tinmay o'zgarishidir. Albatta barcha dizaynerlarning mehnati ayollarni go'zal va latofatli qilib ko'rsatishga qaratilgan. Bunda ularning bu maqsadga qanday usul va vositalar bilan erishgani farq qilmaydi. Kiyinish madaniyati va moda tushunchasini o'zlashtirish faqatgina har bir shaxsning emas balki, jamiyat oldidagi muammo hamdir. Faqatgina ilmiy darajamizga emas, o'zimizni tutishimiz, muomala odobimiz, kiyinish madaniyatimizga qarab ham boshqalar millatimiz va xalqimizga baho berishi doimo yodimizda bo'lmog'i zarur. Hozirgi zamonni modasiz tasavvur eta olmaymiz. Chunki insonlarning so'nggi urfdagi kiyimlarni kiyishga bo'lgan ehtiyojlari ortib bormoqda. Yildan yilga dizaynerlar yangidan yangi g'oyalarni ishlab chiqib, insonlarning modaga bo'lgan ehtiyojlarini qondirib bormoqda. Yil sayin moda olamida turli xil o'zgarishlar bo'ladi, masalan kiyimlar bichimining o'zgarishi yoki ranglar tuslanishi, soch turmaklari, oyoq kiyimlar va hokazolar. Bularni rassom – modelyer o'z chizgan eskizlarida aks ettiradi.

Shuningdek modada tendentsiyalar shiddat bilan o'zgarmoqda, bugun urfdagi buyum, ertaga butunlay boshqacha narsaga aylanadi. Va yana shuni ham aytish mumkinki, 30 yil oldin urfda bo'lgan narsa ertaga trendga aylanishi mumkin. Bugungi moda juda tez o'zgarib bormoqda, har bir mavsum uchun dizaynerlar yangi va o'ziga xos yangiliklarni taklif qilmoqdalar. O'tgan mavsumning trendi bugun ahamiyatsiz bo'lishi mumkin. O'zingizning tanangizga kiyganingiz sizda go'zallik, qulaylik va maqbullik nuqtai nazarini aks ettirishi kerak. Faqat sizning kayfiyatingiz va didingizga mos kelishi kerak. Har bir moda tendentsiyasi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Odatda modada ikkita asosiy mavsumiy vektor aniqlanadi: bahor-yoz va kuz-qish. Shu bilan bir qatorda moda tushunchasi bilan birga uslub (stil) tushunchasi yonma-yon keladi. Zamonaviy moda turli madaniyatlar va xalqlarning an'analariga asoslangan. Trendlarning tinimsiz o'zgarishiga qaramasdan etno uslubiga dizaynerlarning e'tibori yuqori. Biz yaratilgan libos to'plamlarida kashtado'zlik, to'rtli etnik elementlar va printlar bilan boyitilgan kolleksiyalar kuzatishimiz mumkin. Zamonaviy dizaynerlar turli xalqlar an'analaridan ilhomlanishdan to'xtamaydilar. Shu jumladan ko'plari sharq va Osiyo mamlakatlari an'analariga murojaat qiladilar. Har yili yangi trendlarda etno uslubdagi libos to'plamlarini uchratamiz. Odatda moda tendentsiyalarida go'zal gullar va hayvonlar terisi naqshlar, sharqona kashtalar, kimano sifat uslublar va

keng siluetli liboslar joy oladi. Bir soʻz bilan aytganda etno stili yil sayin mavsum xitlaridan biri boʻldi deyish mumkin. Rassom – modelyer ichki tuygʻulari, dunyo qarashidan kelib chiqqan holda qoralama chizadi va asar yaratadi, unga mos matolar tanlab kolleksiya qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: Oʻzbekiston 2017 yil, - 489b.
2. Sh. Mirziyoyev, “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash chora tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF5242-son, 2017yil 17-noyabr. 2-10 betlar
3. Dizayn-loyihalash, Ataxanova F.Z, 2018, oʻquv qoʻllanma. – Toshkent.
4. Loyihalash, Komilova X.X. Vohidova U.A., 2017, oʻquv qoʻllanma. – Toshkent
5. Amonova Zarifa Usmonovna "Экономика и социум" №5(96) 2022 BADIY HUNARMANDCHILIK SOHASIDA KASHTACHILIK TARIXI VA ZAMONAVIY TA'LIMDAGI ETNO O'ZARO TA'SIRI. 2022 y. www.iupr.ru
6. Amonova Zarifa Usmonovna, Xamidova Gulmera Xamidovna. 2022 y.
7. Eurasian Scientific Herald, 7, 275–278. The Role of Embroidery and Ethno Interaction in Traditional Art Crafts <http://www.geniusjournals.org>
8. Абдуллаева, Р. М. (2022). Интеграция С Клиническими Дисциплинами В Медицинском Вузе При Обучении Русскому Языку Специальности. Central Asian Journal of Medical and Natural Science, 3(6), 94-97.
9. Абдуллаева, Р. М. (2022). Коммуникационные Технологии Языкового Обучения В Медицинском Вузе. Central Asian Journal of Medical and Natural Science, 3(6), 98-102.
10. Abdullaeva, R., Esanow, F. N. U., & Eshbaeva, N. (2022). Translation as a means of teaching clinical terminology.
11. Абдуллаева, Р. М. (2019). Ситуативный контекст в процессе преподавания русского языка студентам медицинских вузов. In Современная Россия в мировом политическом процессе: глобальное и региональное измерение (pp. 357-363).
12. Абдуллаева, Р. М. (2021). СЕТЕВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ НА ЗАНЯТИЯХ РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНСКОМ ВУЗЕ. Редакционная коллегия.
13. Кулахметова, Ж. Т. (2018). ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ. НАУКА И ИННОВАЦИИ В XXI ВЕКЕ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ОТКРЫТИЯ, 51.
14. Abdullaeva, R., Mirrahimova, G., Israilova, I., Eshbaev, O., & Aminova, G. (2020). Learning foreign vocabulary using computer programs. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(S1), 567-572.
15. Mirzatullaevna, A. R., Jabbarovich, E. U., Shuhratovna, M. G., Erikovna, N. F., & Majlimovna, P. M. (2019). Uso de tecnologias multimedia modernas en clases de idiomas extranjeros. Religación. Revista de Ciencias Sociales y Humanidades, 4(18), 80-85.
16. Абдуллаева, Р. М. (2016). СВОЕОБРАЗИЕ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ ВЕЛИКОБРИТАНИИ. Ученый XXI века, 9.